QISHLOQ XO'JALIGINI INTENSIVLASHTIRISH SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

Xojabayev Nurmaxambet Muratbayevich
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Annotatsiya: *QISHLOQ XOʻJALIGINI MEXANIZATSIYALASH — q. x. da insonning jismoniy (qoʻl) mehnatini mashina va mexanizmlar bilan bajarish. Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash ishidagi eng muhim masalalardan biri. Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashning mahsuldorligi seleksiya, kimyolashtirish va b. bilan bir qatorda barcha turdagi q. x. ishlarini mexanizatsiyalash darajasi bilan belgilanadi. Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashni tavsiflovchi asosiy koʻrsatkichlardan biri — mehnatning energiya bilan qurollanishi [i. ch. jarayonida mehnatning barcha turdagi (elektr, mexanik va issikdik) energiya bilan taʼminlanish darajasini ifodalovchi koʻrsatkich] va texnika bilan kurollanishi darajasidir. Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash darajasi mehnatni mexanizatsiyalash bosqichi b-n, yaʼni mexanizatsiyalashgan mehnat salmogʻining q. x. mahsuloti ishlab chiqarishga sarflangan umumiy xarajati bilan baholanadi.*

Kalit soʼzlar*: ekstensiv va intesiv, Ishlab chiqarishni intensivlashtirish, intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi,*

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshadi va estensiv va intensiv yo'llaridan foydalaniladi. Ekstensiv shaklidagi qishloq xo'jaligini rivojlantirish deganda mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikni o'sishini miqdoriy omillar evaziga - yangi yerlarni o'zgarish hisobiga ekin maydonlarini ko'paytirish, chorva mollarini boshini ko'paytirish va qo'shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishilishi tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslarini ko'lamlarini ortishi yuz bergani holda texnika texnalogiyasi, sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollar mahsuldorligi tubdan o'zgarmaydi.

Ekstensiv omillari o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'z tarixining dastlabki davrlardan boshlab, o'zlari o'zlashtirgan yerlarni tark etib unumdor yerlarni qidirish uchun yer sharining har tomoniga tarqalganlar. Yangi yerlarni o'zgartirish hozirgi davrda bizning mamlakatimizdagi kabi dunyoning boshqa mamlakatlarida ham davom etmokda. Shu bilan birgalikda dunyo mamlakatlarining rivojlanish tarixi tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishni nisbatan samaradorlik va ahamiyatiliroq shakli bo'lgan intensivlashtirish muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni intensiv shaklda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi sifat omillar evaziga, ya'ni nisbatan takomilashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tadbiq etish (ulardan to'la va samarali foydalanish), dehqonchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiyt ta'sir etuvchi ilg'or texnalogiya,

ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishni zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shuni nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv shakli ba'zi hollarda samarali bo'lishi mumkin, shunga muvofiq har doim ekstensiv shaklni samarasiz deb ta'kidlash fikri o'zini oqlamaydi. Amalda bu ikki yo'l ishlab chiqarishni rivojlanishida bir-birini to'ldirib, piravorida umumiy iqtisodiy samardorlikni ortishiga olib keladi.

Ular yagona xo'jalik faoliyatiga xos usullar bo'lib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifat(intensiv) jihatlari mavjud bo'ladi, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo'ladi. Iqtisodiyot qo'l mehnati texnologiyasi va malakasiz ish kuchiga asoslangan joyda, ekstensiv o'sish ustun turadi. Aksincha, ishlab chiqarish mashinalashgan, serunum texnologiya va yuksak malakali ish kuchiga tayangan joyda intensiv o'sish birinchi o'rinda turadi, ishlab chiqarish rivojlangan sari qonuniyatli tarzda intensiv o'sishning ahamiyati barqaror oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning intensivlashtirish nazariyasi avvalom bor yer xususiyatini hisobga olish, uni qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekaniga asoslanadi. Ma'lumki yerni asosiy vosita sifatida muhim xususiyatlaridan biri uni chegaralanganligidir. Yerni chegaranganligi o'z navbatida qishloq xo'jaligini intensivlvashtirishni taqazo etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni qo'shimcha yer maydonlarini o'zlashtirish orqali amalga oshirish chegaralanganligi ishlab chiqarish oldiga mavjud o'zlashtirilgan yerlarni sifatini yaxshilash, binobarin, ulardan intensiv foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmokda. Almashlab ekish tizimlar yangilanib g'o'za, g'alla, beda ekinlari ekiladigan qisqa aylanishli yangi me'yor joriy etilayotir. Binobarin, respublikada paxta maydonlari qisqartirildi va hozirda 1,5 million gektar chigit ekilmoqda. Bu ko'rsatkich 2002 yilgacha saqlanib turilishi ko'zda tutilgan bo'lib, endigi talab paxta yetishtirishni faqat intensiv texnalogiya asosida ko'paytirilishidan iboratdir. O'zbekistonda 1995 yilidan boshlab, chigitni plyonka ostiga erta muddatlarda ekish joriy etilib, u yaxshi natijalar berdi, ya'ni hosildorlik ochiq maydonlardagidan gektariga 10-15 sentner yuqori, qo'ltivasiya va o'g'it solish tadbirlarining takomillashuvi natijasida yoqilg'i moylash materiallari sarfi 30%ga kamaydi. Paxta yig'im-terimini erta tugatishga erishish hisobiga esa kuzgi boshoqlilarni ekish imkoniyati yaratildi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish - ko'p jihatli jarayon bo'lib, hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning quyidagi omillari muhim ahamiyat kasb etadi:

Iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish. Qishloq xo'jaligini yuksaltirishni birlamchi masalalaridan biri qishloqda iqtisodiy munosabatlarini o'zgartirish, dehqonlarga kam xarajatlar sarflagan holda ko'plab sifatli mahsulot yetishtirishga intilish hissiyotiga ega bo'lgan yerning haqiqiy egalik huquqini qaytarish. Qishloqda iqtisodiy qayta qurishning asosida - dehqonlarga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni amalga

oshiririshga zamin yarata oladigan xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka va shakliga asoslangan muhitni yaratish.

Yetishtirilgan mahsulotlarni asrash, uni nobudgarchiligini oldini olish. Qishloq xo'jaligini mavsumiylik xususiyatini unga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishiga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Qishloq xo'jaligida yuritishning turli mulkchilik shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarishga yaqin yillarda saqlash, qayta ishlash shoxobchalarini yaratilishi imkoniyatlari tug'iladi. Mahsulotlarni nobudgarchiligini oldini olish bilan bir qatorda ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamayishiga erishiladi.

Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirishning asosida yerning unumdorligini oshirish orqali o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi:

Hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o'g'itlarni tadbiq etish tadbirlari;

Kimyoviy vositalardan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari;

v) O'simlik va chorva mollari zararkunanda hashoratlari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish;

g) Chorva mollarini to'yimligini oshirishda kimyoviy chiqarilgan mahsulotlarini keng ko'lamda qo'llanishiga qaratilgan tadbirlar.

d) Qishloq xo'jaligida, Kime sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni keng ko'lamda qo'llanilishiga qaratilgan tadbirlar.

Qishloq xo'jaligini meliorasiyalash. Qishloq xo'jaligi mahsuldorligini qo'shimchalardan foydalanish. D) Qishloq xo'jaligida, kimyo sanoatida, ishlab chiqarishni oshirishda - sug'orish, zax qochirish, yerni ohaklash, sho'rni yuvish tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish muhim omillar jumlasiga kiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». -T.: «O’zbekiston», 2010y.

2. Umrzoqov O’.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o’quv qo’llanma. - T.: Iqtisod – moliya, 2008. – 268 b.

3. O.Murtazayev, I.G’aniyev, Sh.Hasanov, F.Ahrorov. Agrarsiyosat va qishloq xo’jaligi bozorlari. O’quv qo’llanma. Samarqand 2009 y.

XORIJIY ADABIYOTLAR:

1. Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07-353012-3. –New York, 2008. -529 p.

2. Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. –Texas, 2016. – 547 p.

3. Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A.Duffy. Farm management. – 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 – ISBN 0-07-302829-0. –New York, 2008. – 463 p.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.
2. I.M.G`aniyev. Agrar siyosat. (ma`ruza matnlari). Samarqand. 2004 y.

INTERNET SAYTLARI:

1. www.samqxi.uz – Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.uzreport.com – Axborot agentligi.
4. www.agro.uz – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.